

TARAQQIYOT TADQIQOTLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

DEVELOPMENT STUDIES: PERSPECTIVES ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

QORABOYEV Zohidjon Bahodir o'g'li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi

talabasi

O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI

ANNOTATSIYA

O'zbek va qirg'iz xalqlari asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan, madaniyati, tili va turmush tarzi jihatidan o'xshashliklarga ega bo'lgan qardosh xalqlardir.

Ularning o'zaro aloqalari tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan chuqur ildizlarga ega. Ushbu maqolada bu ikki xalqning birlashuv jarayonlari va bugungi kunda davom etayotgan hamkorlik yoritiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Qirg'iziston, yaqin qo'shnichilik, mustaqillik, madaniy aloqalar, Chingiz Aytmatovga ehtirom, xalqaro aloqalar.

Uzoq o'tmishdan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy ildizi o'zaro uzviy bir-biriga bog'liqdir. O'zaro do'stona aloqalar tashqi ta'sirlar va madaniyatlararo hamjihatlik asosida rivojlanib borgan. Tariximiz kabi, qadimgi madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, elatlar o'z ulushini qo'shgan.

Bu tabiiy hol, chunki hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo'lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir. Sharq sivilizatsiyasi yuragi hisoblangan Markaziy Osiyo asrlar mobaynida Buyuk Ipak yo'lining markaziy qismi bo'lib, Sharq va G'arb sivilizatsiyalari to'qnashadigan, hamkorlik hududi sifatida mashhur bo'lgan va odamlar, tovarlar, g'oyalar almashinuvi uchun muhim chorraha hisoblangan.

Markaziy Osiyo davlatlari tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimdan xalqlarimiz qardosh xalq sifatida uzoq yillardan beri yaqin qo'shnichilik munosabatlariga amal qilib tinch totuvlikda yashab kelmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval, uning geografik o'rni va tabiiy sharoitiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ushbu mintaqa hududiy jihatdan qulay muhitda shakillangan. Shu bilan birga madaniyatshunoslik har qanday madaniyatning shakllanishidagi o'ziga xos alfozni – joy manzarasi, iqlimi, biosfera omillarining ahamiyati borligiga alohida e'tibor beradi.

Markaziy Osiyo mintaqasining tabiati turli xilligi bilan katta farq qiladi. Bu yerda serhosil vodiy va vohalar, sersuv daryolar, qaqroq cho'llar, dashtu adirlar, Pomir va Tangritog'ining baland muzofotlari bilan yonma-yon joylashgan. Bunday xususiyat dehqonchilik, chorvador, tog'da yashovchi qabila va xalqlar xo'jalik tarzi va o'ziga xos madaniy aloqalarining shakllanishi uchun imkoniyat yaratdi. Shu o'rinda madaniy aloqalar tushunchasiga kengroq e'tibor qaratamiz.

“Madaniy aloqalar” anchayin keng qamrovli tushuncha bo'lib, u kishilik jamiyatlari o'rtasidagi turli xil ko'rinisdagi aloqalarni o'zida aks ettiradi.

Madaniy aloqalar savdo-sotiq va elchilik munosabatlari, hunarmandchilik, me'morchilik, xaykaltaroshlik, tasviriy san'at, diniy-falsafiy ta'limotlar, axloqiy mezonlar almashinuvi, ilmfanning turli sohalaridagi hamkorlik, ishlab chiqarishdagi texnologik yangiliklarning, innovatsion g'oyalarning tarqalishi va boshqa ko'rinishlarda amalga oshirilib kelingan. Noshudlik, munofiqlik, jaholat, nohaqlik bularning barchasi madaniyatsizlik belgilaridir.

Insonni esa faqatgina bundan ilm qutqaradi xolos. Ilk meva insonni irodali qiladi. Bular barchasi chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham Turkiston ma'rifatparvarlari xalqni ilmi, bilimli qilish tushunchasini madaniyatli qilish tushunchasi bilan birga bog'lab, o'z g'oyalarida targ'ib qila boshlaganlar. Ma'rifatparvarlik harakati vakillarining aksariyat qismi jamiyat va insonning ma'naviy-madaniy rivojlanishini madaniy taraqqiyotda Osiyoga nisbatan ancha ilgarilab ketgan Yevropaning ilg'or madaniy yutuqlarini o'zlashtirishda ko'rdilar [1, B.9].

O'zbek va qirg'iz xalqlari uzoq yillardan buyon bir qator kelib chiqqan muammolarga qaramasdan hech qanday azaliy qadriyatlarni uzgani yo'q. O'zbek va qirg'iz xalqlarining o'zaro uzviy madaniyati rivojlanishida qo'shni va uzoq o'lkalar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar katta o'rin tutgan bo'lib, bu jarayon madaniy yuksalish va texnologik taraqqiyotga turtki bergan. Turli sabablar tufayli, xalqaro aloqalardan uzilib qolgan jamiyatlarda turg'unlik va inqiroz davri boshlanishi insoniyat tarixida ko'p bor kuzatilgan.

Ota-bobolarimiz buni juda yaxshi bilib, uzoq yillardan buyon bu an'anaga amal qilib kelmoqda. Ushbu mavzuda ikki xalq madaniyati to'qnashuvi hosilasi to'g'risida so'z boradi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi. Sovet davrida esa O'zbekiston va Qirg'iziston alohida respublikalar sifatida tashkil topdi. Ushbu davrda sanoat, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida hamkorlik rivojlandi.

O'zbek va qirg'iz xalqlari sovet ta'lim tizimi orqali ilm-fan va madaniyatda hamkorlik qilib, yangi avlod ziyolilari yetishib chiqdi. Shuningdek, o'zbek va qirg'iz adabiyotlari bir-biriga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Alisher Navoiy, Bobur kabi o'zbek mutafakkirlari qirg'iz adabiyotiga ilhom manbai bo'lgan, qirg'iz xalqining ulug' dostonlari, ayniqsa "Manas" eposi esa umumturkiy madaniyatning bebaho yodgorligi hisoblanadi. Ikkala xalqning an'anaviy to'ylari, mehmondo'stlik qadriyatlari, Navro'z va boshqa bayramlar o'xshashdir.

Qirg'izlarda "osh berish" marosimi o'zbek palov madaniyatiga o'xshash bo'lsa, o'zbeklarning an'anaviy kuy-qo'shiqlari qirg'izlarning "komuz" va "akyn" san'ati bilan uyg'unlik kasb etadi. O'zbek va qirg'iz milliy kiyimlari ham o'xshash bo'lib, atlas, adras matolaridan tayyorlangan liboslar keng tarqalgan. Shuningdek, O'zbekistondagi Buxoro, Samarqand me'morchilik yodgorliklari qirg'iz xalqini ham ilhomlantirgan, Qirg'izistonda esa yurt an'anasi saqlanib qolgan. Shu bilan birga mamlakatimizda adabiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibor namunasi sifatida shuni ko'rsatish mumkin-ki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 2-apreldagi Qaroriga asosan, 2018-yilda O'zbekistonda buyuk yozuvchi va jamoat arbobi Chingiz Aytmatovning 90 yilligi keng nishonlandi.

Toshkentdagi markaziy ko'chalarning biriga yozuvchining nomi berildi va barelyef o'rnatildi, Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabida Chingiz Aytmatovga byust o'rnatildi. O'zbekistonda Chingiz Aytmatov faoliyati haqida ko'plab kitoblar nashr etilgan va bir qator hujjatli filmlar suratga olingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim qirg'iz tilida olib boriladigan 56 ta maktab faoliyat ko'rsatadi va ular uchun qirg'iz tilida darsliklar chop etiladi. O'zbekistondagi qirg'iz maktablari va Qirg'izistondagi o'zbek maktablari, shuningdek, ikkala davlat oliygohlari o'rtasida talabalar, o'quvchilar almashinuvi kengayib bormoqda.

Ikki davlat rahbarlari muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib, strategik hamkorlikni mustahkamlamoqda. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Soranboy Jenbekov rasmiy tashrif bilan 2017-yili 13-dekabr kuni O'zbekistonga keldi.

Ikki davlat rahbarlarining tashriflardan ulkan maqsadlar ko'zlangan edi va maqsadlar hozirda o'z natijasini bermoqda.

Xususan, davlat rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari, do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni faol rivojlantirish va mustahkamlash borasida intilishlari qat‘iy ekanini tasdiqladilar. Ikki o‘rtada tomonlar o‘zaro qiziqtirgan mintaqaro va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Xalqaro maydonda o‘zaro munosabatlarni davom ettirish va mustahkamlash borasida ulkan salohiyat mavjudligi, O‘zbekiston bilan Qirg‘izistonning BMT, MDH, SHHT, IHT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorligini yanada rivojlantirishga intilishi mushtarakligi qayd etildi. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida, avvalo, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Keyingi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi sheriklik aloqalari faollashayotgani buning yorqin dalilidir. Jumladan, Qirg‘iziston Respublikasi bilan hamkorlik yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Parlamentlar, turli vazirlik va idoralar, hududlar o‘rtasida aloqalar tobora kengaymoqda. Muzokarada ikki davlat doimiy aloqalari bardavom bo‘lishi, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam maslahatlashuvlarini doimiy o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusini ma‘lum qilgani va uni Qirg‘iziston rahabri qo‘llab-quvvatlashini yana bir bor ta’kidladi. Shavkat Mirziyoyev va Sooranbay Jeenbekov muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar [2, B.1].

Shuningdek, mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida savdo aloqalari qayta tiklandi. Chegaralar ochilib, qo‘shni mamlakatlar o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi oshdi. O‘zbekiston avtomobil sanoati, energetika va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini Qirg‘izistonga eksport qilmoqda.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, suv resurslarini boshqarish va energetika sohalarida hozirda keng hamkorlik aloqalari olib boryapti. Davlat rahbarlari muntazam ravishda uchrashuvlar o‘tkazib, strategik hamkorlikni mustahkamlamoqda. So‘nggi yillarda ikki davlat chegaralarida oson harakatlanish imkoniyati yaratilib, aviaqatnovlar, avtobus va temiryo‘l aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari tarixan, madaniy va iqtisodiy jihatdan chambarchas bog‘liq. Ularning birlashuvi nafaqat tarixiy omillarga, balki bugungi iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorlikka ham asoslangan. Kelajakda ham bu ikki qardosh xalq o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik yanada mustahkamlanib borishiga shubha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qoraboyev U., Soatov G. O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent, 2011.
2. <https://old.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-va-qirgiziston-munosabatlari-rivojida-tarixiy-yil.html>
3. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/markaziy-osiyo-qadimgi-davr-xalqaro-madaniy-aloqalar-tizimiga-oid-yangi-tadqiqotlar-natijalari>